

## SPORT BILAN SHUG'ULLANISH JARAYONIDA NAFAS OLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

**Xasanboy Ibragimov Abdusalomovich,**  
**ADU, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Og'iz orqali nafas olish va nafas chiqarish odati nafaqat tanani kislorod bilan ta'minlashni yomonlashtiradi, balki diafragma va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa mushaklarning zaiflashuviga olib keladi. Natijada bu gavdani to'g'ri tutishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** nafas olish, o'pka alveolalari, qo'zg'alish, harakatlanish, ko'payish, karbonat angidrid, kislorod.

**Abstract:** The habit of breathing and exhaling through the mouth not only worsens the supply of oxygen to the body, but also weakens the diaphragm and other muscles associated with it. As a result, it has a negative effect on keeping the body straight.

**Key words:** respiration, lung alveoli, excitation, movement, reproduction, carbon dioxide, oxygen.

**Аннотация:** Привычка дышать и выдыхать через рот не только ухудшает снабжение организма кислородом, но и ослабляет диафрагму и другие связанные с ней мышцы. В результате это отрицательно влияет на удержание тела прямо.

**Ключевые слова:** дыхание, альвеолы легких, возбуждение, движение, размножение, углекислый газ, кислород.

**Nafas, nafas olish** (lotincha: respiratio) - organizmga kislorod kirib, undan karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) chiqib ketishi, shuningdek, hujayra va to'qimalarda kislorod yordamida kechadigan organik moddalarning oksidlanish, qaytarilish reaksiyalari natijasida organizm hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan energiya ajralib chiqishidan iborat jarayonlar majmui. Odam va har bir boshqa tirik organizm tashqi muhitdan kislorod qabul qilib, karbonat angidrid gazini chiqarib turishi nafas olish deb ataladi. Nafas olish har bir tirik organizmning hayoti uchun eng zarur fiziologik jarayon hisoblanadi. Nafas olish jarayoni quyidagi qismlardan iborat:

1. O'pka alveolalari va tashqi muhit o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (tashqi nafas olish).
2. O'pka alveolalari va o'pkaning kapillyar qon tomirlari o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi.
3. Qon va to'qimalar o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (ichki nafas olish).[1]

Nafas olish orqali tashqi muhitdan qabul qilingan kislorod ishtirokida hujayra va to'qimalarda oqsil, yog' va uglevodlar oksidlanib, energiya hosil qiladi. Hujayra va to'qimalardagi barcha hayotiy jarayonlar (qo'zg'alish, harakatlanish, ko'payish) ana shu energiya hisobiga amalga oshadi. Bu hayotiy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan karbonat angidrid gazi hujayra va to'qimalardan qonga o'tib, o'pkalar orqali tashqi muhitga chiqariladi.

**Nafas bilan qabul qilinadigan va chiqariladigan havoning tarkibi.** Atmosfera havosi tarkibida 20,94% kislorod, 0,03% karbonat angidrid, 79,3% azot bo'ladi. Boshqa gazlar juda kam miqdorda bo'ladi. Nafas bilan chiqarilgan havo tarkibida esa 16,3% kislorod, 4% karbonat angidrid, 79,7% azot bo'ladi. O'pka alveolalari ichidagi havo tarkibida 14,2-14,6% kislorod, 5,5-5,7% karbonat angidrid va 80% azot bo'ladi. Nafas bilan chiqariladigan va o'pka

alveolalari ichidagi havoning tarkibi bir-biridan farq qilishiga sabab shuki, o’pka alveolaridan nafas bilan chiqariladigan havo nafas yo’llaridagi (bronxlar va traxeyalardagi) havo bilan amlashadi. Nafas yo’llaridagi havoning tarkibi atmosfera havosining tarkibiga yaqin bo’ladi, chunki u nafas organi bilan qon o’rtasidagi gazlar almashinuvida ishtirok etmaydi.[2] Nafas olish organizmning ongli ravishda boshqarish mumkin bo’lgan (ma’lum chegaralarda) vazifalariga kiradi. Organizm–yaxlit birlikdir. Unda barcha vazifalari o’zaro bog’liq. Shuning uchun nafas olishni boshqarishda nafas olishni harakatlar va tananing ma’lum holatlariga moslashtirib organizmning boshqa vazifalariga ta’sir ko’rsatish mumkin.

Sport bilan shug’ullanishda to’g’ri va chuqur nafas olish - bu samarali jismoniy mashqlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bunda organizmning kislorod bilan etarli darajada ta’minlanishi nafaqat uzoq masofaga yugurish yoki suzishda, balki har qanday kuch ishlatiladigan mashqlarni bajarishda ham muhimdir.

**Kuch ishlatiladigan mashqlarda nafas olish** Kuch ishlatiladigan mashqlarda nafas olishning asosiy qoidasi - siz burun orqali nafas olishingiz kerak, og’irlik esa nafas chiqarishda siqilishi kerak. Masalan, otjimanie mashqida nafas olishda pastga tushish, nafas chiqarishda esa erdan ko’tarilish kerak.

**To’g’ri nafas olishni qanday o’rganish kerak?** O’zingiz uchun qulay bo’lgan holatni egallang - o’tiring, turing yoki yoting. Chap qo’lingizni ko’krak qafasining ustiga qo’ying, o’ngini esa - qorin ustiga. Tanangizni bo’shashtiring va normal nafas olishga harakat qiling. Bir necha daqiqani siz aynan qanday nafas olayotganingizni o’rganishga bag’ishlang. Nafas olishingiz uzoq, chuqur va og’iz orqali emas, balki burun orqali bo’lishiga e’tibor bering.[3]

**Noto’g’ri nafas olish oqibatlari.** Og’iz orqali nafas olish va nafas chiqarish odati nafaqat tanani kislorod bilan ta’minlashni yomonlashtiradi, balki diafragma va u bilan bog’liq bo’lgan boshqa mushaklarning zaiflashuviga olib keladi. Natijada bu gavdani to’g’ri tutishga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Nafas olish mashqlaridan muntazam foydalanish nafas olish muskullarini rivojlantiradi, ko’krak qafasi harakatchanligi va egiluvchanligini, o’pka hayotiy hajmini oshiradi, o’zini his etishni yaxshilaydi, ish bajarish qobiliyatini oshiradi. [4]

Sportchilar salomatligini saqlashda to’g’ri nafas olish mashqlarining ahamiyati:

- nafas mashqlari paytida to’qima bir necha marta kislorod bilan to’yinadi, qon aylanish yaxshilanadi, faol kapillyarlar soni ko’payadi; nafas olish mashqlarini bajarish paytida nafas olish normallasadi, ritmik, chuqur va to’g’ri bo’ladi;
- nafas olishda ishtirok etadigan mushaklar harakati oshadi;
- orqa miya va ko’krak qafasidagi kasalliklarni bartaraf etishga yordam beradi;
- qorin mushaklari mustahkamlanadi;
- nafas yo’llari va o’pka bilan bog’liq kasalliklarni boshdan kechirganlarga nafas olish mashqlarini bajarish qoldiq alomatlarini yo’q qilishga va o’pka faoliyatini tiklashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Abu Ali ibn Sino vidayushiysya vrach, ucheniy, ensiklopedist. T., Medisina, 1980.
2. Sharq allomalarini zamonaviy sport tibbiyotiga qo’shgan hissalar: “Sog’lom avlod tarbiyasi”. T., anjuman, 1-qism 1993 yil, 2-qism 1994 yil.
3. Dubrovskiy V.I. Sportivnaya medisina. M., Vldos, 2005.
4. Viru A.A., Kirche P.K., Gormoni i sportivnaya rabotosposobnost. M., FiS, 1983.